

BARQAROR TURIZMNING VUJUDGA KELISHI VA ASOSIY MOHIYATI

Zokir Rustamovich Sodikov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasida

dotsenti, i.f.n. Toshkent, O'zbekiston.

Barqaror turizm kontsepsiyasining mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari mavjud hisoblanadi. Barqarorlik kontsepsiyasi 1970-yillarda o'rtaga tashlangan bo'lsa-da, u birinchi marta 1987 yilda BMT shafeligida Jahon atrof-muhit va rivojlanish komissiyasi (World Commission on Environment and Development - WCED) tomonidan nashr etilgan "**Bizning umumiy kelajagimiz to'g'risida**"gi (Our Common Future) hisobotda rasman ta'rif berilgan. Barqarorlik kontsepsiyasi hisobotida "Hozirgi avlod ehtiyojlarini, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish salohiyatiga zarar bermasdan qondiradigan rivojlanish" sifatida ta'rif berilgan.

Kelajak avlodlarning manfaatlariga zarar bermasdan va ularning yashash huquqiga ziyon qilmasdan, hozirgilarning ehtiyojlarini qondirish sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, ayni paytda, barqarorlik kontsepsiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda iqtisodiy, korporativ va ijtimoiy sohalarning uzluksiz rivojlanishi kerakligini ham ifodalaydi.

Shu bois barqarorlik - bu ijtimoiy hayotdan madaniy va shaxsiy hayotga, sanoatdan qishloq xo'jaligiga, san'atdan dizaynga, kimyodan qurilishgacha bo'lgan har qanday sohada turmush tarzini qayta ko'rib chiqishga undaydigan yondashuv tarzi hisoblanadi. Shuning uchun, barqarorlik - bu insonning biologik xilma-xillik va tabiiy ekotizimlarning jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlarini qondira oladigan tarzda himoya qilinishini bildiradi. Shuningdek, tabiiy ekotizimlarni himoya qilish uchun bu ideallarni juda uzoq vaqt mobaynida rejalashtirib, amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlarni bajarilishini anglatadi.

Zero, tabiatda barqarorlik atrof-muhitni boshqarishni eng maqbul tarzda amalga oshirishga va ekologik mukammallikka erishishga zamin hozirlaydi. Bugungi kunda dunyo resurslari va ekotizimlarining degradatsiyaga uchraganligi hamda kishilar o'rtasida jiddiy ijtimoiy tengsizliklar mavjudligi umumiy tarzda e'tirof etiladi. Shu bois, mazkur vaziyatlarni bartaraf qilish jamiyatlar va hukumatlarning oqilona tashabbuslariga va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga bog'liq hisoblanadi. Ham ijtimoiy, ham tabiiy tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va parallel bo'lmagan, shuningdek, rivojlanayotgan ijtimoiy-ekologik tizimlar sifatida birgalikda faoliyat olib boradigan murakkab va real mavjudotlar hisoblanadi. Jahon amaliyotida turizmni bunday muvaffaqiyatga erishtirish tadqiqotchilar,

maslahatchilar, boshqaruvchilar va manfaatdor tomonlarning aralash tizimini yaxlitlovchi yoki birlashtiruvchi va parallel bo'lmagan yondashuvlar orqali tushunishlari kerak bo'ladi. Aks holda yuksalish to'sib qo'yiladi va natijalar o'zgartiriladi, shu bois ular nuqsonli va tub ma'nodan mahrum bo'lib qoladi.

Xalqaro amaliyotda turizm tinchlik, farovonlik, erkinlik va xavfsizlik sharoitida juda yaxshi rivojlansada, ammo, bu shart-sharoitlarga ziyon yetkazganligi kuzatiladi. Sanoatni tartibga solish, o'zgaruvchan dunyoning dinamiklari va ekologik ravishda barqaror rivojlanish borasida ortib borayotgan andishaga muvofiq tarzda turizmning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish masalasida yetarli darajada elastik yoki moslashuvchan bo'lish kerak.

Shu bois, ideal turizm muhiti bir-birini to'ldiruvchi tabiiy xususiyatlar va maqbul ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqib yuksaladi. Biroq, bugungi dunyoda turizm ko'pincha atrof-muhitni manipulyatsiya qilishni va o'z maqsadiga muvofiq o'zgartirishni zarur hisoblaydi. Garchi turizm ko'pincha iqtisodiy rivojlanishning jozibali manbayi sifatida ko'rilsa-ham, an'anaviy ommaviy turizm, ko'plab ekologik muhitlarning yo'q qilinishi va madaniy meroslarning boyberilishi kabi hisobsiz salbiy ta'sirlar bilan bog'liq jarayon ekanligi qayd etiladi. Shu bois bu xavotirlarga javob e'tibor tarzida yaqinda paydo bo'lgan atama barqaror turizmdir tushunchasi hisoblanadi.

Global iqtisodiyotda barqaror turizm - bu turizmning mavjud tamoyillari va amaliyotlaridan xushlanmaslik oqibatida kelib chiqadigan o'zgarishlardan ehtiyot bo'lish uchun yuzaga chiqqan tadbir hisoblanadi. Barqaror turizm, tartibli yoki istiqrorli iqtisodiy o'sishning atrof-muhit va hayot sifati ijtimoiy qadriyatlarga oid tashvishlar bilan birlashganda, turizmni rivojlantirish va siyosatlarda uzoq muddatli yuksalishning lokamativ kuchi bo'lishini tan olgan umumiy o'zgarishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur shart-sharoitlar iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan, ammo turizmning kelajagi bog'liq bo'lgan resurslarni, xususan, mezbon jamoaning moddiy hamda jismoniy muhitini va ijtimoiy qadriyatlarini barbod qilmaydigan turizmni anglatadi. Bundan tashqari, odamlar o'zaro ta'sir qiladigan yoki o'zaro ta'sir qilmaydigan muhit buzilmasdan yoki o'zgartirmasdan saqlab qolinishi orqali madaniy yaxlitlik, ekologik jarayonlar, biologik xilma-xillik va hayotni ta'minlovchi tizimlarni davom ettirish kerak bo'ladi. Ayni paytda barcha resurslarning turistlar tashrif buyuradigan hududdagi kishilarning va sayyohlarning iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlarini ta'minlaydigan tarzda, shuningdek, kelajak avlodlarni ham shunday ehtiyojlarini qondiradigan shaklda va boshqariladigan rivojlanish amaliyoti hisoblanadi.

Jahonda globallashuv muntazam ravishda avj olib borayotgan jarayonda barqaror turizm - bu turizm rivojlanishini tabiiy boyliklarga zarar yetkazmasdan jadallashtirish va rejalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotlarni ta'minlashga hissa qo'shishi

zarurligini bildiradi. Shuningdek, barqaror turizm faoliyatlarining atrof-muhitga nisbatan sezgirliги va ekologik ong masalasida o'zgachalikni chuqurlashtirish manfaatlar keltirishi ma'lum bo'ladi.

Barqarorlik – bu turizmning ijtimoiy va ekologik jihatlardan iborat ekanligi, qolaversa, sof iqtisodiy hodisa sifatida qaralmaganligi uchun turizmga muayyan chegaralar va maqbul ustuvorlikni ta'minlovchi tushunchani kiritmoqda. Zero, ba'zi iqtisodiyotlarda kutilayotgan o'sish va yangi tendentsiyalar tabiiy ravishda qo'riqlanadigan hududlarning barqarorligiga va atrof-muhitning rivojlanish salohiyatiga ijobiy hissa qo'shishi yoki salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun turizm strategik holatga keltirilmoqda.

Shu bois, turizmni rivojlantirilishi bu hududlarni himoya qilinishi, mahalliy aholi va turistlarning ekologik bilimlarini oshirilishi uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Ushbu maqsadlar turizmdan tortib muhofaza qilish choralarigacha bo'lgan moliyaviy resurslarni hosil qilinishi, turistlar va hududda yashovchilar yoki rezidentlar uchun maqbul ma'lumotlar, talqinlar va ta'lim dasturlari orqali korib chiqilishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari, qo'riqlanadigan hududlarda turistik operatsiyalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash maqsadida ehtiyotkorlik bilan reja tuzilishi, boshqarilishi va monitoring qilib borilishi kerak bo'ladi. Aksi taqdirda, turli-tuman salbiy ta'sirlar yuzaga chiqishi va turizm bu hududlarning yanada yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019.
3. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/4143188>.
4. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.
5. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. -152 b.
6. Gulyamova G.P. Turizmda institusional munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: "COMPLEX PRINT", 2019. – 240 b.
7. www.unwto.org.
8. <https://uzbektourism.uz>
9. www.stat.uz